

1945-1970 YILLARDA QASHQADARYO VILOYATIDA UMUMIY O'RTA TA'LIM TIZIMIDAGI AHVOL.

*Ne'matov Shavkatjon Boymurod o`g`li.
Qarshi muhandislik iqtisodiyot instituti mustaqil tadqiqotchisi.*

Annotatsiya. Mazkur maqola 1945-1970 yillarda Qashqadaryo viloyatida umumiyo'rta ta'lom tizimidagi ahvol. hamda ta'lom sohasiga munosabat uning ahvoliga bag`ishlanadi.

Kalit so`zlar: xalq maorifi ,xalq maorifining ahvoli, o'rta maktab, Maorif xalq komissarligi, boshlang`ich maktab,yetti yillik maktab, maktablar qoshidagi sog'lomlashtirish maydonchalari.

Ikkinci jahon urushining boshlanishi, ta'lom tizimi, madaniy-ma'rifiy muassasalar faoliyatida murakkab vaziyatni vujudga keltirdi. Ayniqsa, mazkur sohalarda faoliyat yuritib kelayotgan mutaxassislarning frontga safarbar etilishi, ularning ish faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Urush sababli maktablar uchun yangi binolar qurilishi to'xtatildi. Ta'lom muassasalari binolarining ko'pchiligi respublikaga ko'chirib keltirilgan harbiy korxonalarining ishchilari uchun yotoqxonalarga, gospitalarga va bolalar uylariga ajratib berildi. Undan tashqari maktab binolarining asosiy qismi ta'mortalab bo'lib, ba'zilari esa umuman yaroqsiz holga kelib kolgan edi.Urush yillarda Qashqadaryo oblasti hududidagi maktab binolarining 50 foizdan ortig'i qarovsiz holatda bo'lib, ularning 24 tasi esa butunlay yaroqsiz ahvolda edi. Masalan, Yakkabog' rayoni markazidagi maktab binosidan omborxona, Shahrisabz shahridagi Pushkin nomli maktab binosidan esa kasalxona sifatida foydalanib kelinmoqda edi¹ O'zSSR XKS 1944-yilning 25-dekabrda "Qashqadaryo oblastida xalq maorifining ahvoli va maktablarning ishi to'g'risida" maxsus qaror qabul qildi. Qarorda turli sabablar bilan maktablardan ketib qolgan pedagoglarni o'z ishlariga qaytarish va pedagoglarni boshqa ishlarga jalb etishni man etish masalalari muhokama qilindi. 1944–1945 o'quv yilida respublika bo'yicha boshqa ishlarga ketib kolgan 1273 sobiq o'qituvchilar o'z ishlariga qaytarilgan.

Chim qishlog`ida 1944-yili maktab binosi Sarbozor qishlog'i Normurodovlar hovlisiga ko`chirilgan. Usha vaqtida Bolta Xolmurodov, Islom Shukurov. Mamat va Nurmat Saidovlar, O'ta Shodmonov, Ahmad Hamdamov. Xujamurod Eshonqulov, Alla Sattarov, Boboqul Xoldorov. Tuqli Rasulovlar o'qituvchilik qilishgan. 1946-1952 yillarda maktabga Omon Xoltoev, Ahmad Saidovlar direktorlik qildilar. Shuni aytib o'tish kerakki, 1937-yili 4-son maktabning binosi qurilib, bitkazilgan edi va 1954-yili

¹ Қашқадарё ВДА, 1-фонд, 1-рўйхат, 141-ийғма жилд, 1-варақ.

maktabda VIII-IX sinflar ochilishi munosabati bilan yangi bino foydalanishga topshirildi. Direktor Egamshukur Suyarov edi.² Ko'chkakdagagi hozirgi 3-umumta'lim maktabi 1951-52 o'quv yilida to'qqiz yillik bo'ldi. Unga 22 nafar o'quvchi tortildi. Shu o'quv yilida 13 ta sinf bo'lib 260-270 nafar o'quvchi o'qir edi. Birinchi bitiruvchilar 34 nafar bo'lib, ulardan 16 nafarini qizlar tashkil qilgan. 1953 yilga kelib o'quvchilar soni keskin ko'payib, sinf xonalari yetishmaganligi sababli, yangi o'quv binosining birinchi qismi qurildi. O'sha paytlar maktab direktori Karimov Halim bo'lган. Keyinchalik, 1963-yilga kelib ikkinchi qismi qurildi.

1959-60 o'quv yiliga kelib ushbu o'quv dargohi 10 yillikka, ya'ni o'rta maktabga aylantirildi va 1966-67 o'quv yiliga kelib maktab binosining qo'shimcha, uchinchi qismi qurildi.³

Beshkent rayonida 1945-yil o'rtalariga kelib rayon miqyosida xalq maorifi moddiy tanglikka duch keldi, o'qituvchi kadrlar yetishmadidi, mablag' ta'minoti tanqis bo'ldi. O'qituvchilarning ko'p qismi urushga safarbar etilgan, qishloq maktablarining yuqori sinf o'quvchilarining ko'pchiligi qishloq xo'jalik mehnatiga jalb etilib, vaqtincha o'qishdan uzilib qolgan edi. Ahvolni o'rgangan rayon ijroiya qo'mitasi Mo'min Rahmonov raisligida o'tgan 1945-yil 24-iyul yig'ilishida rayondagi ayrim o'rta va to'liqsiz maktablarni qisqartirish haqidagi masalani muhokama etdi. Masala yuzasidan maorif mudiri Karim Shomurodov ma'ruza qildi. Yig'ilish ba'zi fanlardan mutaxassis o'qituvchilar yetishmayotganligini hisobga olib, Mug'lon qishloq Sovetidagi 3-o'rta, Qamashi qishloq Sovetidagi 4-o'rta maktablarni to'liqsiz o'rta maktab hajmida qoldirish, Mug'lon o'rta maktabining yuqori sinf o'quvchilarini Beshkent o'rta maktab internatiga joylashtirish to'g'risida qaror qabul qildi. Shuningdek, Chorog'ilda 6-TUM (to'liqsiz o'rta maktab), Boyg'undidagi 9-TO'M, Shakarjo'ydagagi 12- TUM, Ayzavotdagi 23-TUM, Nayistondagi 26-to'liqsiz o'rta maktablar mutaxassis o'qituvchilar yetishmayotganligi sababli boshlang'ich maktab hajmida qoldirildi. Mazkur maktablarning V- VIII sinf o'quvchilari yaqin maktablarga o'tkazildi.⁴ Urushdan so'ng mahalliy sho'ro idoralari maktab ishiga astoydil kirishdilar. Kasbi rayonining deyarli hamma qishloqlarida 1970-yilga qadar boshlang`ich ta'lim maktablari tashkil etildi. Urushdan so'ng Dehnov qishlog'idagi hozirgi Mavlon Mavliev nomli maktab tayanch hisoblanib, unga Dureza, Pandirom, Fazli qishloqlaridan kelgan bolalar yetti yillik maktabni bitirmoqchi bo'lsalar, doimiy qatnaganlar. Bunday maktablar internat maktab deyilgan. Maktablarda bolalarga bepul ovqat berilgan. Tumanimizdagi Navoiy nomli yetti yillik maktabda Muhammad Xidirov direktor bo'lган. Uning fidoyiligi natijasida 1955-56 yillarda maktab o'n yillikka aylantirildi. 1956-yilda o'quvchilarga sovg'a sifatida bir qavatli maktab binosi

² Боймиров.Т. Чим - фидоий инсонлар юрти.-Тошкент, 2015.- Б. 104

³ Шарипов.Я . Кўчак ўтмишидан лавҳалар. Қарши "Насаф" нашриёти 2019.- Б-57

⁴ Эргашев.Э.Бешкент тарихи. Қарши "Насаф" нашриёти 2000.Б-112-113

qurilishi tugallandi. 1950-yilda Mug`lon va Kasbi qishloq bolalari uchun hozirgi Hamza nomli 2-o`rta maktab tashkil topdi. 1956-1957 o`quv yilida shunday maktab Dehnovda ham ochildi 1960-yillarda Kasbi tumanida ham barcha joyda bo`lgani singari, o`quvchilarga texnika fanlarini ko`proq o`tish, qishloq xo`jaligi mashinalarini boshqara oladigan kishilar yetishtirishni o`ylab ish yuritila boshlandi. Shuningdek, mакtablarda pedagogik g`oyalarni yoyishga, ayniqla boshlang`ich sinf o`quvchilariga puxta bilim berishga e`tibor berildi. Shu yillarda boshlangich sinf o`quvchilariga puxta bilim berish va qo`l mehnatini o`rgatish uchun darslar kiritildi.⁵ Kasbi tumanidagi 1961-yilda Talliyulgun qishlog`ida 1961-yilda hozir Turdi Zoirov nomi bilan ataladigan maktab ish boshladi. Bu maktab to`rt xonadan iborat bo`lib, 4- sinfni tugatgan o`quvchilar M.Javliev nomli o`rta maktabga qatnab o`qirdi.⁶ Chiroqchi tumani Uyshun qishlog`idagi 1-May nomli 7 yillik maktab 1966-yildan 10 yillik o`rta umumta`lim maktabga aylantirildi. Unga fidoyi ustoz Xudoyberdi Tursunov direktor etib tayinlandi.⁷ Bundan tashqari maktab o`quvchilari maktabdan keyin ham turli ishlarga jalb qilindi. Qamashi rayonidagi Qorabog` qishloq sovetidagi to`qqizinch son yetti yillik maktabning 650 ga yaqin o`quvchisi va o`qituvchilari har kuni darsdan keyin Frunze nomli kolxozga chiqib paxta terdilar. Bu ishlarda Jabbor Qo`yliev, Qizlaroy Bobonyazarova, Suyun Barotov, Toshoy Chorieva va Ulug' Husanova kabi o`quvchilar boshqalarga namuna bo`lmoqdalar.⁸ Bu paytga kelib maktablar uchun yangi binolar ham qurildi. Shuningdek Qozoq qishloq sovetidagi Kaganovich nomli yetti yillik maktab binosi kichik va talablarga javob beradigan bo`limgani uchun yangidan 8 sinfli bino qurildi va ishga tushirildi.

Kasbi qishloq sovetidagi Ostrovskiy nomli yetti yillik maktab binosi 12 sinfdan iborat qilib qurildi. Yangi binoda kolxoz yoshlari maroq bilan o`qimoqdalar.⁹ Lekin ayrim hudud mакtablariда ta`lim tarbiyaga sust e`tibor qaratilyapti. Partiya va hukumat xalq maorifi ishiga hartaraflama g`amxo`rlik qilib kelmoqda. Maktablarda o`quv yoshidagi barcha bolalarning bilim olishi va tarbiyalanishi uchun zarur bo`lgan hamma sharoitlar yaratib berilgan. Ammo, shunga qaramay, oblastimiz mакtablariда ta`lim-tarbiya ishlarining uyushtirilishi bugungi kunning talabiga javob bermaydi. Ko`pchilik maktab kollektivlari va xalq maorifi organlari yosh avlodni kommunistik ruhda tarbiyalashdek eng muhim vazifaga yetarli e`tibor bermayotganliklari natijasida, oblastimiz mакtablariда o`quv yilining birinchi choragi qoniqarsiz yakunlandi. Urushdan so`ng katta muammolaridan yana biri bolalarning mакtablarni tark etish holatlarining ko`payishi bo`lib, oblastimizning barcha shahar va rayonlarida ham bolalarning mакtablarni tark etish holatlari kuzatildi. Oblastimizda umumiyl majburiy ta`lim

⁵ Сариқов.Н,Бобоҷонов.М, Жўраев.Ч, Ҳақназаров.Д, Касбиликлар-Тошкент 1996.-Б.30

⁶ Сариқов.Н,Бобоҷонов.М, Жўраев.Ч, Ҳақназаров.Д, Касбиликлар-Тошкент 1996.-Б.32

⁷ Алиқулов. Ҳ,Ўйшун қишлоқ тарихидан лавҳалар.Тошкент-2009.Б-14

⁸ Раупов. Ҳ. Ўқувчилар ҳиссаси // Қашқадарё ҳақиқати газетаси 1950-йил 4-октябрь № 197 Б-4

⁹ Бозоров.Р. Бешкент районида // Қашқадарё ҳақиқати газетаси 1950-йил 28-ноябрь № 285.Б-4

haqidagi qonunning bajarilayotganligiga qaramay, shu davr ichida ko'pgina bolalar mакtablardan ketib qolgan. Ayniqsa Kitob, Yakkabog', Chiroqchi, Koson va Ko`kbuloq rayon maktablarida ahvol yomon. Kitob rayon maktablarida o'quvchilarining o'zlashtirishi 73,8 protsent. VIII-X sinf o'quvchilarining o'zlashtirishi esa. 68,6 protsentni tashkil qiladi xolos. O'rtoq Meliulov direktorlik qilayotgan Palandara qishloq sovetidagi 27-sovet yetti yillik mакtabda 196 o'quvchidan 70ga yaqin bola fanlardan o'zlashtirmagan. Bu mакtabda tarbiyaviy ishlar nihoyat darajada bo'shashtirib yuborilgan. Ota-onalar o'rtasida hech qanday ish olib borilmaydi. Pedagogika sovetlari onda-sondagina chaqiriladi. O'qish-o'qitish ishlaridagi xato va kamchiliklar o'z vaqtida bolshevistik tanqid va o'z-o'zini tanqid asosida ohib tashlanmaydi. Shuningdek, Palandara qishloq sovetidagi 25-nchi son, Varganza qishloq sovetidagi 28-nchi son Kalinin qishloq sovetidagi 11-nchi son mакtablarda ham ko'plab o'quvchilarining davlat o'quv programmasi yomon. Birinchi chorakda oblastdagi bir qator mакtab rahbarlari o'z ishlaridagi xato va kamchiliklarni yashirish uchun ko'zbo'yamachilikka ham yo'l qo'ydilar. Masalan, Yakkabog' rayonidagi Kuybishev nomli o'rtal mакtabning direktori Ismoilov va ilmiy bo'lim mudiri Ten o'rtoqlar o'qituvchilar tomonidan o'quvchilarga qo'yilgan baholarini qalbakilashtirib, sun'iy baholar qo'yish va shu bilan oson shuhrat qozonishga uringanlar. Shuningdek, Chiroqchi rayonidagi Mayakovskiy nomli va Koson rayonidagi Pushkin mакtablarda o'quvchilarining bilimiga oshirib baho qo'yish hollari sodir bo'lган. Bunday yaramas ahvollarga yo'l qo'yish aslo mumkin emas. Har bir o'quvchiga uning olgan bilimiga qarab, to'g'ri va haqqoniy baho qo'yish kerak. Shuni esdan chiqarmaslik kerakki, agar o'quvchilar o'quv yilining dastlabki davrlarida chuqur va asosli bilim olsalar, bu hol keyingi choraklarda bolaning o'qishini ancha yengillashtiradi va o'quv yilini durust yakunlashga olib keladi. Shuning uchun har bir o'qituvchi o'zi o'qitayotgan fan va sinf bo'yicha o'quvchilarga programma materiallarini puxta tushuntirishi, har bir o'quvchining qanday o'qiyotganligini qunt bilan kuzatib borishi, ulgurmovchi o'quvchilarga o'z vaqtida yordam berishi, konsultatsiyalar uyushtirishi va o'tilgan darslar muntazam takrorlab borilishi zarur. O'quvchilarining darsdagi davomatiga alohida etap berish talab qilinadi. Buning uchun avvalo o'quvchilarga qulay sharoit vujudga keltirish va ota-onalar bilan aloqani mustahkamlash lozim. Hozir qishning sovuq kunlari keldi. Mакtab rahbarlari oldida o'qish xonalarini normal haroratda bo'lish taminlash vazifasi turadi Partiya, sovet tashkilotlari va xalq maorifi organlari mакtablarga rahbarlikni har qachongidan ham kuchaytirgishlari, maktablar hayotida sodir bo'layotgan xato va kamchiliklarni o'z vaqtida aniq lashlari ularni darhol bartaraf etish choralarini ko'rishi kerak.¹⁰

¹⁰ Мактабларда ўқув йилининг иккинчи чорагини муваффақиятли якунлайлик // Қашқадарё ҳақиқати газетаси 1950-йил 28- декабрь № 256.Б-2

Bu paytga kelib SSSRda 214 ming umumiy ta'lif maktablari bo'lib, ularda 48 milliondan ko'proq o'quvchi ta'lif-tarbiya olgan. Bolalarni o'qitish ishlari esa mamlakatdagi 68 millat tillarida olib borilgan. O'zbekistonda esa 7315 ta umumta'lif maktablari mavjud bo'lgan. Ularda 60 dan ortiq millatning 2 million 795 ming farzandi ta'lif olgan. Respublikamizda o'qish 7 tilda olib borilgan. Respublikamizning Qashqadaryo oblastidagi 595 ta umumiy ta'lif maktablarida o'qiyotgan 166 mingga yaqin o'g'il va qiz 20 dan ortiq millat farzandlaridir. Shahrисabz rayon Kitob stantsiyasi posyolkasidagi Gogol nomli o'rta maktabda 982 o'zbek, 767 tatar, 364 rus, 60 ukrain, 35 belorus, 26 ozarbayjon, 145 tojik, qozoq, moldavan, gruzin, arman, latish millatiga mansub jami 2279 o'qil-qiz ta'lif olgan. O'quvchilar o'quv yilini tugatganlaridan so'ng dam olish maskanlariga ham jo'natilgan. G'uzor rayonidagi aksariyat maktablarda sinfdan sinfga ko'chirish va mакtabni tamomlash imtihonlariga ancha barvaqt kirishildi. Bu sohada Pushkin nomli. «Oktyabr». Ilich nomli, Kalinin nomli mакtab kollektivlari ayniqsa namunali ishlarni amalga oshirdilar. Bu bilim o'choqlarida takrorlash darslari yuksak saviyada o'tkazildi, o'quvchilar bilimini chuqurlashtirishga imkon beradigan barcha tadbirlar amalga oshirildi. Imtihonlar va konsultatsiyalar jadvali o'z vaqtida tuzib chiqildi, imtihonlar o'tkazish tajribali peda goglarga topshirildi. Alovida xonalar ajratilib, ularda o'quvchilar pedagoglar rahbarligida imtihonlarga tayyorgarlik ko'rdilar. Shu tufayli mazkur maktablarda sinfdan sinfga ko'chirish va tamomlash imtihonlari yaxshi natijalar bilan yakunlandi. O'tgan yili rayon territoriyasidagi, pioner lagerlarida 1215 o'quvchi, maktablar qoshidagi sog'lomlashtirish maydonchalarida 600 o'quvchi dam olgan, ekskursiya va poxodlarda 500 ga yaqin o'quvchi ketgan edi. Bu yil esa lagerlarda 2000 dan ortiq o'quvchi dam oladi. 700 o'quvchi sog'lomlashtirish maydonchalarida hordiq chiqaradi. 1200 o'quvchi poxodlarga chiqadi. 250 dan ortiq bola respublika Ittifoqimiz bo'ylab uyushtiriladigan sayohatlarda ishtiroy etadi. O'quvchilarning yozgi kanikulni maroqli o'tkazishlarini ta'minlash maqsadida ko'pgina lagerlar barvaqt tayyorlab qo'yildi. Ular zarur inventarlar va tarbiyachilar bilan to'la ta'minlandi. O'quvchilarni zarur o'quv qurollari bilan ta'minlash. pedagoglar malakasini oshirish sohasida ham muhim tadbirlar amalga oshirilayotir. O'tgan yili rayon bo'yicha 116 o'qituvchi malaka oshirish kurslarida ishtiroy etgan bo'lsa bu yil 260 pedagog seminarlarga va kurslarga qatnashib o'z malakalarini oshiradilar. Oldimizda katta va mas'uliyatli vazifa turibdi. Maktablarni yangi o'quv yiliga barvaqt taxt qilib qo'yishimiz va o'quv yilini muvaffaqiyatli boshlab yuborishga erishmog'imiz lozim. Qamashi maorifchilar, partiya, tashkilotlari hamda jamoatchiligining tashabbusiga qo'shilgan rayonimiz maorif chilari bu sohada ham durust tadbirlarni amalga oshirayotirlar. Rayondagi Telman nomli, Kirov nomli, Xamid Olimjon nomli, «Pravda», «Kommunist» maktablarida remont ishlari allaqachon boshlab yuborilgan. Ularda sind xonalarini remont qilish, inventarlarni taxt qilib qo'yish ishlari tezkorlik bilan olib borilayotir. Bu

yil rayondagi 17 mактабда kapital va 74 mактабда jориј remont Gogol nomli, A. Matrosov nomli, «Qahramon» mакtablari uchun yangi binolar bунyod etiladi. K. Marks nomli, Tereshkova nomli, Hamid Olimjon nomli mакtablar qoshida 50 ga yaqin qo'shimcha sinf xonalari quriladi. Ma'lumki, mакtablarni yangi o'quv yiliga barvaqt va sifatli tayyorlashda otaliq tashkilotlari muhim rol o'ynaydilar. Rayondagi ko'pgina otaliq tashkilotlarining pedagogik kollektivlarga yordamlari katta bo'layotir. Masalan, Lenin nomli kolxoz territoriyasida bitta o'rta, to'rtta sakkiz yillik mакtab, kolxozda 3 ta mакtab binosi uchun tipovoy bino qurildi. Chkalov nomli sakkiz yillik mакtab uchun esa ikki qavatli yangi bino qad ko'tarayapti.¹¹ Bu yillarda ta'lim tizimidagi amalga oshirilgan ishlar umumta'lim mакtablardagi muammolarni to'liq qamrab ololmadi. Bu esa ta'lim sifatini tushishiga olib keldi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati.

1. Боймиров.Т. Чим - фидоий инсонлар юрти.-Тошкент.2015.
2. Шарипов.Я . Кўчкак ўтмишидан лавҳалар. Қарши "Насаф" нашриёти 2019.
3. Эргашев.Э.Бешкент тарихи. Қарши "Насаф" нашриёти 2000.
4. Сариқов.Н,Бобоҷонов.М, Жўраев.Ч, Ҳақназаров.Д, Касбиликлар Т-1996.
5. Алиқулов. Ҳ ,Уйшун қишлоқ тарихидан лавҳалар.Тошкент-2009.
6. Жўраев.М.Майманогим-саждагоҳим Тошкент-1997.
7. Ражабов.М Боқий умр.Қарши ..Насаф" нашриёти 2000
8. Қашқадарё ҳақиқати газэтаси.

¹¹ Раҳмонов.Н.Қамашиликлар изидан // Қашқадарё ҳақиқати газэтаси 1968 йил 18 июнь № 117.Б-2